

## **BO'LAJAK O'QITUVICHLARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONTSEPTUAL ASOSLARI**

*Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich*

*Qo'qon Davlat Pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv negizida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi va yondashuvning mazmun-mohiyati va kontseptual asoslari to'g'risida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: XXI asr – intellektual asr, tizmiy yondashuv, innovatsion yondashuv, kreativ yondashuv, ijodiy yondashuv, majmuaviy (komillik) yondashuv, integrativ yondashuv, bilim, ko'nikma va malaka.*

## **СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

*Курбанов Жасурбек Акмалжонович*

*Коканский государственный педагогический институт Национальная идея, Старший преподаватель кафедры духовно-правового воспитания, доктор философских наук (PhD)*

*Аннотация: В статье рассматривается вопрос модернизации подготовки будущих учителей на основе интегративного подхода к развитию интеллектуальной культуры будущих учителей, комментируются сущность и концептуальные основы подхода.*

*Ключевые слова: 21 век - век интеллектуальный, системный подход, инновационный подход, творческий подход, творческий подход, комплексный (совершенный) подход, интегративный подход, знания, умения и компетенции.*

## **THE CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL CULTURE IN FUTURE TEACHERS**

*Annotation: The article considers the issue of modernization of training of future teachers on the basis of an integrative approach to the development of the intellectual culture of future teachers, and comments on the essence and conceptual foundations of the approach.*

*Keywords: 21st century - intellectual century, systemic approach, innovative approach, creative approach, creative approach, integrated (perfect) approach, integrative approach, knowledge, skills and competence.*

**KIRISH.** XXI asr – intellektual asr ko'inishini olib bo'ldi. Buni hozirdagi ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojidan yaqqol sezish mumkin. Ular negizida ishlab chiqarilayotgan intellektual tizimlarda ko'plab tizmiy yondashuv, innovatsion yondashuv, kreativ yondashuv, ijodiy yondashuv, majmuaviy (komillik) yondashuv, integrativ yondashuv kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilmoqda. Bu tadqiqot

uslublari ichidan integrativ yondashuvdan ko'proq foydalanilmoqda. Bunga sabab intellektuallashtirilgan asrning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda albatta ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga to'g'ri keladi, ya'ni bular asosidagi hosil bo'ladigan-yangilangan ta'lim mazmunini tashkil etishda integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Bu yo'nalishning istiqbolli tomoni shundaki, bunda dunyo miqiyosidagi o'qitish tizimlarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan integratsiyalashtiriladi, shuningdek, integratsiyalash ta'limni intellektuallashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini yanada mukammallashtirishda nixoyatda zarur. Respublikamizda intellektual salohiyatli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ushbu masalani hal qilishga aloxida e'tibor qilinmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Jahon ta'lim tizimida talabalar intellektual madaniyatini integrativ yondashuv negizida rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarni ikki guruhga – G'arb va Sharq mamlakatlarida o'rganilishi[1], deb ajratish mumkin.

G'arb mamlakatlarida talabalar intellektual madaniyati olimlar SH.Legg, J.Doland, P.Kollinslar tomonidan tadqiq etilgan.

Sharq mamlakatlarida intellektual madaniyatning pedagogik jihatlari, oliy ta'lim muassasalari talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasini olimlar A.Sukkamart, B.Sisan, M.Salvaratnamlar[2] o'z izlanishlarida tahlil qilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasida -Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlarini joriy etish vazifasi belgilangan.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Bo'lajak o'qituvchilarni integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish ularga mos innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, ilmiy-metodik ta'minotni tayyorlash ushbu sohaning dolzarb yo'nalishlaridan xisoblanadi. Bunda ushbu sohadagi davlat siyosatini e'tiborga olgan holda tayyorlangan o'qituvchilar mamlakatimiz barcha jabhalarini intellektuallashtirishga munosib hissa qo'sha oladigan mutaxassislar bo'lib yetishadi. SHuning uchun mazkur tadqiqot ishida ham integrativ yondashuv negizida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi. Ushbu muammoni hal etishda dastlab an'anaviy ta'lim tizimiga mos va xos bo'lgan davlat hujjatlari o'rganilib chiqiladi va ulardagi bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni modernizatsiyalashga qaratilgan g'oyalar va ko'rsatmaviy fikrlar muammo yechimini hal qilishda etiborga olinib boriladi va ulardagi didaktik imkoniyatlar hisobga olinadi. Quyida ularning bazilari haqida to'xtalamiz[3]:

1. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni malaka tavsifnomalarinig mavjudligi.

4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasidagi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkunligi va shu kabilar. Bu ko'rsatilgan oxirgi imkoniyat bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni dastlabki bosqichidanoq integratsiyalashga kuchli e'tibor berish kerakligi talab qilinadi. Bo'lajak o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi fanlar bloklarining yo'naltirilgan maqsad-vazifalari bor va ularning muammo

yechimini hal qilishga yetarligini aniqlab olishga to'g'ri keladi. O'rganilgan Davlat hujjatlaridagi imkoniyat va shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchisini tarbiyalashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirishga bo'lgan dastlabki imkoniyatlar bo'lib hisoblanadi. SHuning birga mazkur yo'nalishdagi dastlabki izlanishlarimiz natijalari bo'lajak o'qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashni zamon talablarini e'tiborga olgan holda integrativ yondashuv asosida amalga oshirishning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bunday muammolarning ijtimoiy ahamiyatini ham yanada yuksaltiradi. Va qayd etish mumkinki, tadqiq etilayotgan muammoning o'zi ham Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi istiqbolli dolzarb muammo bo'la oladi.

SHu sababli mazkur tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida bo'lajak o'qituvchilarini integrativ yondashuv negizida tayyorlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olindi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchisini integrativ yondashuv negizida tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy ketma-ketligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab oldik[4]. Ularni quyidagicha ifodalab oldik:

□ Bo'lajak o'qituvchilarida integratsiyalashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Bu birinchi kurslar ta'lim tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi;

□ Bo'lajak o'qituvchilarini integrativ yo'nalishlarni tanlashga o'rgatish. Bu bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi ikkinchi kurslar ta'lim-tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi;

□ Bo'lajak o'qituvchilarini integrativ funktsiyalarni yaratish va ular maqsad-vazifalari hamda mazmun-moxiyatini anglab yetishga o'rgatish. Bu bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi uchinchi kurslar talim tarbiyasi davomida amalga oshiriladi;

□ Bo'lajak o'qituvchilarini integrativ yondashuv qilishga tayyorlash. Bu bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi to'rtinchi kurslar ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan boshlang'ich sinflarga mos didaktik materiallar va spravochnik ma'lumotlar hamda muammoni yechishga kerak bo'ladigan kreativ axborotlar muhitlari tayyorlanib olindi.

Tizimlashtirilgan ma'lumotlar negizida bo'lajak o'qituvchilarni integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi yechimini hal qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlar bazasi tayyorlanadi. Bu bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashdagi yangilangan (modernizatsiyalangan) ta'lim mazmunini shakllantirishning metodologik asoslarini tayyorlab olishga keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar negizida hal etilgan bosqichlar bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlarni an'anaviy ta'lim jarayoni mazmuniga integratsiya qilish masalasi yechimini qarab chiqish mumkin bo'ladi. Buning uchun ta'lim mazmunini integratsiya qilishga oid kuyidagi qonun-qoida, tamoyillar va xulosaviy fikrlar o'rganilib chiqildi: O'qitish vositalari; o'qitish algoritmi; o'qitish mazmunini integratsiyalash; o'qitish me'yorlari; o'qitish texnologiyalari; o'qitishga axborotni tanlash; o'qitishdagi integratsiya; o'qitishda xususiyatlarni tanlash va shu kabilar. Ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalariga asoslanib ta'lim mazmunining integratsiyasi haqida ham biror-bir hukmiy fikrni shakllantirishga ham imkoniyat yaratildi. Biz uni quyidagicha ifodaladik: ta'lim mazmunining integratsiyasi deganda mazmunlar orasidagi mustahkam aloqa, ularning bir-birlariga o'tish jarayoni va ularga mos natijalar hamda ushbu jarayondagi bilimlar sintezi, faoliyat turlari

va qobiliyatlarning yaxlit tizimi degan tushunchaga keldik. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotimizning psixologik jixatlari ham ahamiyatlidir, ya‘ni ta‘lim mazmunidagi integratsiyalash ishlari bo‘lajak o‘qituvchilardagi ko‘pchilik xususiyatlarni tarbiyalaydi. Bu haqda quyidagi fikr ahamiyatlidir: —O‘qitishda xususiyatlarni tarbiyalash-fanlarni o‘qitish, o‘quvchilarda ilmiy munosabatni, quyidagilarni xususiyatlaydigan munosabatlarni tarbiyalash maqsadini ko‘zlaydi: qiziqish (bilish xohishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi); skeptiuzm (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko‘rib chiqish xohishi); dalillash (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalardan foydalanish mahoratlari); xabardorlik (uning yordamida o‘ylash mumkin bo‘lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi); strategiyalar (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishi); moyillik (yangi bilimlarni olish natijasida talaba o‘zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta ko‘rishni boshlashi uchun boshqalarning fikri va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi). SHuningdek, ushbu yo‘nalishdagi bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashning pedagogik jihatlari ham o‘ta ahamiyatlidir. SHuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashga oid materiallarning an‘anaviy ta‘lim mazmuniga integratsiyasi bo‘yicha pedagogik shart-sharoitlar ham o‘rganilib chiqildi. Unda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning o‘quv rejasidagi fanlar bloklari ham o‘rganilib chiqilishi, shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashga mo‘ljallab tayyorlangan algoritmik bosqichlardagi ma‘lumotlar an‘anaviy ta‘lim mazmuniga integratsiyalanadi. Yuqoridagilarni e‘tiborga olgan holda aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko‘nikmani shakllantirish jarayoni ularning butun oliy o‘quv yurtida tahsil olish davomida hal etiladi. Ulardagi integratsiyalash, integrativ yo‘nalishni tanlash, integrativ funktsiya‘ni ishga tushirish mazkur muammo yechimi uchun propedivtik hamda didaktik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi asos bo‘ladi. Tadqiqotimizning ushbu qismida olib borilayotgan izlanishlar natijalariga asosan quyidagi xulosaviy fikrlarni keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik: Bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta‘lim mazmunini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratdi; Bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashning to‘rt bosqichi (integratsiyalash; integrativ yo‘nalishni tanlash; integrativ funktsiya‘ni ishga tushirish; integrativ yondashuv) bo‘yicha olib borilgan tadqiqot hajmi va qamrovi kengligi qaralayotgan muammo yechimini hal qilishda ma‘lumotlar bazasini shakllantirishning zaruriyligini ko‘rsatdi; Bo‘lajak o‘qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlash bosqichlari ko‘pligi (ular to‘rtta) ushbu tadqiqot jarayoni va ularning natijalarini muntazam ravishda nazorat qilib borishligini ko‘rsatdi, aks holda tadqiqot jarayonida chetlanishlar (samarasiz yo‘llar) yuz berishi mumkin va shu kabilar.

O‘quv jarayoniga ta‘limning interfaol shakllari, texnologiyalari – integrativ dars, integrativ kun, o‘quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi metodlar jadal joriy qilinmoqda. Ta‘limning globallashuvi hamda sog‘lom va muammoli ta‘lim muhitini tashkil etish orqali bolalarni birgalikda o‘qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta‘limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo‘lmoqda[5]. Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishda integratsiyalashgan ta‘limning o‘rni ayniqsa, muhimdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo‘llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo‘yicha o‘ziga xos innovatsion yondashuv bo‘lib,

uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy, texnologik islohotlarga bog'liq. Bu islohotlarning barchasi o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini tayanch kompetentsiyalar asosida shakllantirishga asoslangan.

Ma'lumki, Integratsiya (lot. *integratio* — tiklash, to'ldirish, *integer* — butun so'zidan olingan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funktsiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Integrativ yondashuv – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash jarayonidir.

Bu yondashuv o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli yondashish, o'quvchilar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Integrativ yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompleks va tizimli yondashuv, tizimiy tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduktiya metodlaridan foydalanishda qo'l keladi.

Integrativ yondashuv ta'lim va tarbiyani ierarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy samaralarni kafolatlaydi.

O'quv jarayoni o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga ma'lum bir sharoitda, muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi, texnologiyalashgan ta'limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Integrativ yondashuv bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Integratsiya – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

Integrativ funktsiya – bu funktsiya kasbiy ta'limni bog'lovchi maydondir. Bunda ta'lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko'nikma, malaka, me'yor, pedagogik tizimlarni o'zida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, talabalarda har xil predmetlarda o'tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan hodisalar, tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar orasidagi o'zaro integratsiya va har tomonlama bog'lanish borligini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish; bu bog'lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta'minlash; o'quvchilarda ijodkorlik masalalarini nazariy to'g'ri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli o'quv predmetlarini o'rganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy – iqtisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini to'g'ri shakllantirish ko'nikmalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

Integratsiyalash – lotincha “*integer*” - umumiylik, “*integera*” - umumiylikni to'ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bo'lib, u umumlashtirish,



xulosalashlarda metodologik vosita bo'lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi.

O'qitish mazmunini integratsiyasi – o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari, bilim sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirish o'quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, tadqiqotchilik elementlari faqat ma'lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Chunki, bironta fan doirasida uni to'liq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda turli fanlarni o'qitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas. Ular fanning o'ziga xos vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi. Masalan, fizika kursida o'quvchilar radioaktiv moddalar va ularning tirik organizmga ta'sirini o'rganadilar. Kimyo fanida kimyoviy elementlar, ularning xususiyatlari, atmosferaga kimyoviy moddalarning chiqarilishi va uning ta'sir qilishi, suvlar, mineral moddalar va o'g'itlar hamda boshqa tabiiy hodisalar haqidagi tushunchalar keltiriladi[6]. Biologiyada tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligi, biosfera va boshqalar o'rganiladi. Ona tili va adabiyot fanlarida uchraydigan so'zlarning ma'nosi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari o'rganilsa, tarix fanida davrlar, tarixiy shaxslar, davlatlar va yuqoridagi fanlar tushunchalarining tarixiy davrlardagi ahamiyati urning[7].

**XULOSALAR.** Xulosa qilib aytganda bo'lajak kadrlar intellektual madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv negizida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi va yondashuvning mazmun-mohiyati va kontseptual asoslari to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, dogmatik ravishda emas, ongli tanqidiy tafakkur asosida bo'lishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Поваренков Ю.П. Психологическое содержание профессионального становления человека / Ю.П. Поваренков. М.: Изд-во ИП РАН, 2002.- С. 137
2. Janet G.Donald. Intellectual skills in higher education. The Canadian Journal of Higher Education, Vol. XV-1, 1985. pp. 61.
3. Йўлдошев Н. Фалсафадан нима наф? <http://khyuldoshev.wordpress.com>
4. Rodionov M, Dedovets Z. The Development of Students' Intellectual Tolerance in the Process of Teaching Mathematics at Secondary Level. London Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume 18/ Issue 2. -pp. 1-14.
5. European Commission. The European Higher Education Area in 2018: Bologna Process Implementation Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union. (<http://ec.europa.eu/eurydice>). –P. 159
6. Akmaljonovich, K. J. (2022). Role Of Philosophy Education In Forming Intellectual Culture In Future Teachers. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1366-1371.
7. Akmaljonovich, K. J. (2022). Objective and Subjective Socio-Pedagogical Factors for the Formation of Intellectual Culture in Future Teachers. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 148-151.